

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RASULOV SHAVKAT SHAROF O'G'LI**

**MILLIY IQTISODIYOTDA ISHCHI KUCHI RESURSLARI FAOLLIGINI  
OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation the abstract Doctor of Philosophy (PhD)  
in economics sciences**

**Rasulov Shavkat Sharof o‘g‘li**

Milliy iqtisodiyotda ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishning nazariy asoslari.....3

**Расулов Шавкат Шароф угли**

Теоретические основы повышения активности трудовых ресурсов в национальной экономике.....29

**Rasulov Shavkat Sharof ugli**

Theoretical foundations of increasing the activity of labor resources in the national economy.....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RASULOV SHAVKAT SHAROF O'G'LI**

**MILLIY IQTISODIYOTDA ISHCHI KUCHI RESURSLARI FAOLLIGINI  
OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3687 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich**  
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Arabov Nurali Uralovich**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kuvondik Baxtiyorovich**  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy; Tel: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [tsue@tsue.uz](mailto:tsue@tsue.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy; Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [tsue@tsue.uz](mailto:tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**B.D. Xajiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida global beqarorlik, jumladan, Covid-19 pandemiyasi davrida fojiali oqibatlarni yengish va aholi salomatligini tiklash borasida dunyo mamlakatlari uchun ortiqcha ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarni yuzaga keltirdi. Mazkur salbiy ta'sir 2022-2024-yillarda mehnat resurslariga bo'lgan talab taqchilligi kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining "Jahonda bandlik va ijtimoiy himoya istiqbollari: 2023-yilga mo'ljallangan tendensiyalar" nomli hisobotida, joriy yilda global bandlik o'sish darajasi 1,0 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Dunyo bo'ylab ishsizlar soni ko'rsatkichi esa 208 millionga yetishi hamda global ishsizlik darajasi 5,8 foizga ortishi kutilmoqda. Bunday salbiy tendensiyaning kutilishi ko'p jihatdan yuqori daromadli rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi taklifining qisqarishi bilan bevosita bog'liq<sup>1</sup>. Bu o'z navbatida ishchi kuchi resurslariga bo'lgan talabni qondirish bo'yicha mavjud kamchilik va muammolar yechimini ishlab chiqish, iqtisodiy o'sish sifati parametrlariga ishchi kuchi resurslarining statistik bog'liqligini aniqlash asosida iqtisodiy-ijtimoiy holatga ta'sirini baholash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jahondagi global ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik sharoitida milliy iqtisodiyotda ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Aholi soni dinamikasining jamiyat iqtisodiy farovonlik darajasiga ta'siri, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslarini shakllantirish mezonlarini takomillashtirish, ishchi kuchi resurslari faolligini oshirish, ishchi kuchi resurslari bandligiga qaratilgan davlat bandlik siyosati samaradorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ishchi kuchi resurslarining samarali bandligini ta'minlash, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir etuvchi omillarni baholash, ishchi kuchi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash, mazkur jarayonlarni modellashtirish hamda uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqishning amaliy jihatlarini tadqiq etish hamda istiqbolda ishchi kuchi resurslarini faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim makroiqtisodiy yo'nalishi sifatida aholining ish bilan bandligini ta'minlash va ishchi kuchi resurslarining iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ishchi kuchi resurslarini iqtisodiy faolligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy "...faol" modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash", "aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari" asosiy

---

<sup>1</sup> [https://www.ilo.org/mbscow/news/WCMS\\_865541/lang--ru/index.htm](https://www.ilo.org/mbscow/news/WCMS_865541/lang--ru/index.htm) Экономический спад может вынудить работников соглашаться на менее качественные рабочие места.

vazifa sifatida belgilangan<sup>2</sup>. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar jarayonida ishchi kuchi resurslari iqtisodiy faolligini oshirish muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi birinchi navbatda, mazkur tushunchaning evolyutsion qarashlari va konseptual yondashuvlarini ham nazariy va amaliy jihatdan yondashish hamda pandemiya davrigacha va undan keyingi real ijtimoiy hayotga bevosita bog'langan holda tadqiq qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-iyuldagi 09/23/307/0519-son "O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrdagi 07/23/366/0854-son "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 11-fevraldagi PF-6277-son "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son "Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 28-apreldagi PQ-5094-son "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida", 2021-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 27-martdagi PQ-5041-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 21-iyuldagi PQ-3877-son "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiyotni rivojlantirishning maqbul strategiyasini shakllantirishning tarkibiy

---

<sup>2</sup> Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

qismi hisoblangan aholining ish bilan bandligini ta'minlash hamda mehnat resurslari faolligini oshirish masalalari S.Jukov, P.Juravlev, J.M.Keyns, A.Kokina, K.Makkonnell, R.Mumladze, Yu.Odegov, Rudenko, A.Rofe, L.Sbitova, A.Smit kabi olimlar tomonidan o'rganilgan<sup>3</sup>. Mazkur tadqiqotlarda asosan ishchi kuchi resurslari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ishchi kuchi resurslarini shakllantirishning tasnifi, mehnat resurslari bandligining asosiy turlari va shakllari, aholining mehnat migratsiyasi, ish bilan ta'minlashni tartibga solish, aholini ish bilan bandligining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi kabi nazariy-uslubiy jihatlarini ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishdagi muammolarning nazariy asoslarini o'rganish va yechimlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan yetakchi olimlar qatoriga Q.X. Abduraxmonov, H.P. Abulqosimov, Sh.Sh. Shodmonov, B.X. Umurzakov, G.Q. Abdurahmonova, T.T. Jo'rayev, U.V. G'ofurov, M.X. Ashurova, Sh.R. Xolmo'minov, N.Q. Zokirova, D.A. Ortiqova, D.Rahimova va boshqalarni kiritish mumkin<sup>4</sup>. Ularning ilmiy ishlarida aholini ish bilan bandligini oshirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlar natijasida mamlakatimiz hamda xorijiy olimlar va amaliyotchilar ilmiy ishlarida ishchi kuchi resurslarining samarali ish bilan bandligi tarkibiga yetarlicha e'tibor berilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarini to'g'ri aniqlashga imkon yaratdi.

Mazkur tadqiqot ishida tanlangan muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotda yetarlicha tadqiq etilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarni ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

---

<sup>3</sup>Жуков С., Резникова О.В. Центральная Азия в социально-экономических структурах современного мира. - Москва: Московский общественный научный фонд, 2001; Журавлев П. Управление человеческими ресурсами: опыт индустриально развитых стран. - М: ЭКЗАМЕН, 2005; Кейнс Дж. Общая теории занятости, процента и денег. - М.: 1978; Кейнс Дж. Общая теории занятости, процента и денег. - М.: 1978.; Кокина А.Я. Экономика труда. Учебник. - М.: Магистр, 2010. - 293 стр.; Кокина А.Я. Экономика труда. Учебник. - М.: Магистр, 2010. - 293 стр.; К.Р.Макконел, С.Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика. /Перевод с англ. -М.: ИНФРА-М, 2006. -940 с.; Мумладзе Р.Г. Экономика и социология труда: учебник / под общ ред Р.Г. Мумладзе. - 2-е изд., стер. - М.: КНОРУС, 2007.; Оdegov Ю.Г. Экономика труда: Учебник — М.: Волтерс Клувер, 2011. - 768 с.; Руденко Г.Г. Специфика положения молодёжи на рынке труда / Г.Г. Руденко, А.Р. Савелов // Социологические исследования. - 2002.; Рофе А. Экономика и социология труда. - М.: МИК, 2004; Сбытова Л. Структура занятости и эффективность производства. - М.: Наука, 1982; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: Наука, 1993.

<sup>4</sup> Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Дарслик. - Т.: Фан ва технология, 2012. - 388 б.; Абулқосимов Х.П. Иқтисодиётда инсон омили: шаклланиши, амал қилиши ва фаоллашуви. Монография. - Т.: Академия, 2006. - 346 б.; Умурзаков Б.Х., Рахимов М. Меҳнат мунособатлари ва менталитет. - Т.: Ўзбекистон, 2005.; Холмўминов Ш.Р. Меҳнат бозори иқтисодиёти. - Т.: ТДИУ, 2004. - 202 б.; Зокирова Н.К. Социально-трудовые отношения: международный и национальные аспекты. - Т.: Фан, 2008. - С. 88.; Артыкова Д.А. Формирование занятости населения в Республике Узбекистан. - Т.: Фан, 2005.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonda zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslari faolligini oshirish qonunlarini aniqlash hamda ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Ishchi kuchi resurslarining iqtisodiy mazmuniga bo‘lgan nazariy qarashlar evolyutsiyasini tadqiq etish;

zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslarini shakllantirish mezonlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishning xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchi resurslari bandligiga qaratilgan davlat bandlik siyosati tahlilini amalga oshirish;

ishchi kuchi resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandligining joriy holatini tahlil qilish;

respublikada ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifga ta‘sir etuvchi omillar tahlilini amalga oshirish;

respublikada ishchi kuchi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash;

davlatning ishchi kuchi resurslarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

O‘zbekistonda ishchi kuchi resurslari bandligiga ta‘sir etuvchi ko‘rsatkichlar ta‘sirini boshqarish jarayonlarini modellashtirish, uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqishning amaliy jihatlari tadqiq etish hamda istiqbolda ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishga qaratilgan bandlik faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib, ishchi kuchi resurslari faolligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada umumlashtirish, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, prognozlashtirish, kompleks tahlil hamda sifatli tahlil bilan miqdoriy tahlilni birgalikda olib borish asosida tendensiyalarga baho berish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

band bo‘lgan ishchi kuchi resurslarining mehnat faolligini oshirishda vaqtincha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, ish izlovchilarni yotoqxona va transport bilan ta‘minlash, tezkor buyurtmalar olish va boshqa qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish jarayonlariga davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tadbirkorlik sub‘ektlarini keng jalb etish taklifi asoslangan;

mehnatga layoqatli aholi va iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi qatlami uchun “barcha uchun ish” tavsifiga ko‘ra “Mening ishim” buyurtmalar birjasi onlayn maydonini ishga tushirish orqali ishchi kuchi resurslari faolligini oshirish taklifi asoslangan;

ishchi kuchi resurslarini malakasi jihatidan tabaqalashtirish asosida tarmoq,



hudud va korxonalar kesimidagi faolligining erishilgan optimal me'yorlarni belgilash hamda har bir toifa bo'yicha mavjud iqtisodiy faollikni o'zaro taqqoslash orqali yanada kuchaytirish borasidagi imkoniyat va zaxiralarni aniqlash taklifi asoslangan;

O'zbekistonda iqtisodiyotda band aholi sonining o'zgarishiga endogen va ekzogen omillarning ta'sirini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida 2026-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

ishchi kuchi resurslari kategoriyasiga ta'sir etuvchi iqtisodiy qonunlarni tahlil etish asosida aniqlik kiritilgan;

ishchi kuchi resurslari iqtisodiy faolligini oshirish va ular bandligini tartibga solishning respublika, mintaqa va korxonalar darajasidagi rivojlanish strategiyasi modelini yaratish taklif etilgan;

zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslarining shakllanishi mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

ish bilan band bo'lgan aholi sonining kamayishi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan bandlik tarkibining jiddiy ravishda o'zgarishi ish bilan norasmiy bandlik ko'lamlarining kengayishida o'z ifodasini topishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va tavsiyalardan ishchi kuchi resurslarini shakllanish manbalarining tasnifiy xususiyatlari, ishchi kuchi resurslarining faolligini oshirish, ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishda davlatning mavjud vositalaridan samarali foydalangan holda kamaytirish hamda milliy dasturlarni ishlab chiqish, maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy jihati unda ochib berilgan ishchi kuchi resurslarini samarali faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan ishchi kuchi resurslarining faolligini oshirishda, shuningdek, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Statistika agentligi va boshqa davlat boshqaruvi organlari uchun tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Iqtisodiyot nazariyasi" va "Ijtimoiy siyosat" fanlarining ishchi-o'quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslari faolligini oshirish qonunlarini aniqlash hamda ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga

qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

band bo'lgan ishchi kuchi resurslarining mehnat faolligini oshirishda vaqtincha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, ish izlovchilarni yotoqxon va transport bilan ta'minlash, tezkor buyurtmalar olish va boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish jarayonlariga davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi PQ-5094-son "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 2-noyabrdagi №04/00-01/25-996-son ma'lumotnomasi). Natijada aholining o'z mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlashga qadar davlat-xususiy, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida frilanserlik faoliyatini keng rivojlantirish, maktabning yuqori sinflaridanoq kasbga o'rgatish tizimini joriy etish, yosh mutaxassislarning xalqaro mehnat bozorida intellektual ishchi kuchi sifatida kasbiy ko'nikmalarini xalqaro elektron platformalar orqali namoyon qilish, oliy ta'lim muassasalarida dasturlar va fondlarni shakllantirish, yoshlar tadbirkorlik klasterlari va konsalting xizmatlarini tashkil etish tadbirlarini ishlab chiqish imkonini yaratgan;

mehnatga layoqatli aholi va iqtisodiy faol bo'lmagan aholi qatlami uchun "barcha uchun ish" tavsifiga ko'ra "Mening ishim" buyurtmalar birjasi onlayn maydonini ishga tushirish orqali ishchi kuchi resurslari faolligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi PQ-5094-son "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 2-noyabrdagi №04/00-01/25-996-son ma'lumotnomasi). Natijada respublikada o'z ishini yo'qotgan mehnatga layoqatli va iqtisodiy faol bo'lmagan aholi qatlami, ishsizlar, ayniqsa, ayollar, yoshlar, talabalar, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ishlar, masofadan turib bajariladigan ishlar, uyda bajariladigan ishlar, kasanachilik ishlari, frilanserlik faoliyati, ish grafiklari, talab etiladigan malaka darajasi, ish haqi miqdori kabi ma'lumotlar elektron portfelini yaratish imkoniyatini bergan;

ishchi kuchi resurslarini malakasi jihatidan tabaqalashtirish asosida tarmoq, hudud va korxonalar kesimidagi faolligining erishilgan optimal me'yorlarni belgilash hamda har bir toifa bo'yicha mavjud iqtisodiy faollikni o'zaro taqqoslash orqali yanada kuchaytirish borasidagi imkoniyat va zaxiralarni aniqlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi PQ-5094-son "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 2-noyabrdagi №04/00-01/25-996-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi oliy va professional ta'lim bilan qamrab olinmagan yoshlarni ish bilan ta'minlash, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida frilanserlik faoliyatini keng rivojlantirish, maktabning yuqori sinflaridanoq kasbga o'rgatish tizimini joriy etish, yosh mutaxassislarning xalqaro mehnat bozorida intellektual ishchi kuchi sifatida kasbiy ko'nikmalarini xalqaro elektron platformalar orqali namoyon qilish,

oliy ta'lim muassasalarida dasturlar va fondlarni shakllantirish, yoshlar tadbirkorlik klasterlari va konsalting xizmatlarini tashkil etish tadbirlarini ishlab chiqish imkonini yaratgan;

O'zbekistonda iqtisodiyotda band aholi sonining o'zgarishiga endogen va ekzogen omillarning ta'sirini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni orqali ishlab chiqilgan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 4-"Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish" yo'nalishini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 2-noyabrdagi №04/00-01/25-996-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi mamlakatda aholi qatlami ayniqsa imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini 3 baravar oshirish, norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirishga xizmat qilishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xorijiy, 5 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola va xorijiy jurnallarda 3 ta maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 127 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi hamda muhokama natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Milliy iqtisodiyotda ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, mazkur bobda ishchi kuchi resurslarining iqtisodiy mazmuniga bo'lgan nazariy qarashlar evolyutsiyasi, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslarini shakllantirish mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari hamda ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishning xorijiy davlatlar tajribalari bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining zamonaviy taraqqiyot strategiyasi va uning imkoniyatlarini tadqiq etish eng avvalo uni ishchi kuchi resurslari tarkibi, soni, o'zgarish tendensiyasi, ularning iqtisodiyotdagi sifat

ko'rsatkichlari, mehnat bozori va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi transformatsion jarayonlardagi rolidagi o'zgarishlarni mazmunli tahlil qilishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ilmiy manbalarda ishchi kuchi resurslariga va ularni samarali boshqarishga bo'lgan nazariy qarashlar evolyutsiyasi iqtisodiy tarix sahnasida ko'plab mutafakkirlar hamda iqtisodchi olimlar tomonidan har tomonlama ko'rib chiqilgan.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) e'lon qilgan materiallarda ishchi kuchi deganda faqat ish bilan band yollanma xodimlar, shuningdek, yollanma ish izlayotgan odamlar tushuniladi<sup>5</sup>. Xorijlik iqtisodchi olimlardan Yu.G. Odegov "Ishchi kuchi – bu insonning mehnatga bo'lgan intellektual, ruhiy va jismoniy qobiliyati hisoblanib, har qanday raqobatbardosh mehnat faoliyati davomida yuzaga chiqishini ko'rsatib o'tadi"<sup>6</sup>. Yana bir xorijlik iqtisodchi olim E.Saxonko ishchi kuchi – bu mahsulot ishlab chiqarilishida qatnashib, mahsulotning tovar sifatida sotilishi yoki sotilmasligidan qat'i nazar, shaxsning unumli mehnat qilish qobiliyatidir<sup>7</sup>, deb ta'kidlagan. Biroq, bunday yondashuvda shaxsning mehnat qilish qobiliyati qanday xususiyatlar tufayli erishilganligi, shuningdek, mehnat unumdorligini oshirish uchun qanday ichki jihatlari tufayli rag'batlantirilishi to'laqonli ochib berilmagan. Muallifning "ish kuchiga" bergan bunday ta'rifi cheklangan xarakterga ega, chunki xodimning qobiliyatlari, uning o'ziga xos jihatlari e'tibordan chetda qolgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan akademik Q.X. Abduraxmonovning ta'riflashicha, "ishchi kuchi yoki mehnat qobiliyati deganda, biz inson organizmi, insonning tirik shaxsiga ega bo'lgan va u har safar biron-bir iste'mol qiymatini ishlab chiqarayotganida ishga soladigan jismoniy va ruhiy qobiliyatlarining yig'indisini tushunamiz"<sup>8</sup>, deb ta'rif bergan. Iqtisodchi olimlardan H.P. Abulqosimov va M.X. Ashurovalarning fikricha, "ishchi kuchi – bu insonning mehnat qilishga qaratilgan jismoniy va aqliy qobiliyatlari yig'indisidir". Bu qobiliyatlarning har bir sohibi mehnatga layoqatli kishidir. Mazkur qobiliyatning amalda qo'llanilishi mehnat yuz berganini bildiradi<sup>9</sup>. T.T. Jo'rayev "Ishchi kuchini – insonda mavjud bo'lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlar yig'indisi. Mehnat – esa inson ishchi kuchining sarflanish jarayonidir", deb ta'kidlaganlar. Ishchi kuchi mazmuniga ancha mazmunli ta'riflarni iqtisodchi olimlardan Sh.Sh. Shodmonov, U.V. Gafurovlar berishgan, ularning e'tirof etishicha, "Ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi. Ishchi kuchining boshqa tovarlar kabi qiymati va nafliligi mavjuddir va binobarin, uning bozori ham mavjud bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o'rniga ishchi kuchi bozori, mehnat

<sup>5</sup> Маматурдиева Д. Р. (2011). Меҳнат бозорида ишчи кучи категориясининг ижтимоий-иқтисодий моҳияти. Экономика и финансы (Узбекистан), (4-5), 78-87.

<sup>6</sup> Одегов Ю.Г. Экономика труда [Текст]: учебник. - В 2-х т. / Ю.Г. Одегов, Г.Г. Руденко, Л.С. Бабынина. - М.: Альфа-Пресс, 2007. - Т. 1. - 760 с. - С. 290.

<sup>7</sup> Сахонько, Е. К вопросу о стоимости рабочей силы при капитализме / Е. Сахонько. – Режим доступа: <http://www.thewalls.ru/parshev/work1.htm>

<sup>8</sup> К.Х. Абдурахмонов «Меҳнат иқтисодиёти (назари ва амалиёт)», Тошкент. «Меҳнат» 2004 йил, 18-бет.

<sup>9</sup> Абулқосимов Ҳасан Пирназарович, & Ашурова Муборак Хайруллаевна (2014). Ишчи кучи сифати ва рақобатбардошлигини ошириш йўллари. Экономика и финансы (Узбекистан), (9), 18-27.

resurslari o‘rniga ishchi kuchi resurslari deyilsa to‘g‘ri va tushunarli bo‘lar edi”<sup>10</sup>, deb hisoblaydilar.

## 1-jadval

### Ishchi kuchi va mehnat resurlari mazmuniga bo‘lgan yondashuvlar evolyutsiyasi<sup>11</sup>

№	Mualliflar	Talqin va yondashuvlar
1.	K. Marks	Ishchi kuchi – bu inson aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi bo‘lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning o‘zi emas yoki uning mehnati ham emas, uning qobiliyatidan iboratdir. Jamiyatning milliy mahsuloti hisobiga ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omillarigina emas, balki shaxsiy omili, ya‘ni ishchi kuchi ham takror ishlab chiqarilad.
2.	Sh. Shodmonov	Ishchi kuchi – bu insonning mehnatga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi bo‘lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi
3.	T. Jo‘rayev	Ishchi kuchi – insonda mavjud bo‘lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlar yig‘indisi. Mehnat – esa inson ishchi kuchining sarflanish jarayonidir
4.	Yu.Q. Yo‘ldoshev	Ishchi kuchi – (mehnat) insonning aqliy va jismoniy mehnat qilish qobiliyatlari yig‘indisi
5.	O.I. Dudin va V.A. Zelenkov	Ishchi kuchi – bu insonning bilim darajasi, yangiliklarga intiluvchanligi, u yoki bu iqtisodiy faoliyatdagi takror ishlab chiqarishdagi mehnat unumdorligiga qo‘shgan hissasi, o‘z bilim tajribalarini korxonada faoliyatida foyda bilan chiqishiga va ishchilar daromadining oshishiga zamin yaratganligi hamda samarali g‘oyalarini joriy etilishi sifatida qaralgan
6.	Q.X. Abduraxmonov	Mehnat resurslari mamlakat aholisining o‘z ruhiy-fiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne‘matlar ishlab chiqarishga (xizmat ko‘rsatishga) qodir mehnatga layoqatli qismi hisoblanadi
7.	A.A. Qayumov	Jismonan va aqlan barkamol, zaruriy bilim va tajribaga ega bo‘lgan yoki ularni egallashga qodir, geografik (tashqi), sotsial (ichki) muhitlar rivojlanish xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan odamlar majmuidir
8.	H.P. Abulqosimov	Mehnat resurslari – bu mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan aholini ifodalaydi
9.	Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)	Mehnat resurslari – mehnatga layoqatli yoshda bo‘lgan mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan tashqari yoshda (nafaqaxo‘r-pensionerlar va o‘smirlar) mehnat qilayotgan shaxslar jamlanmasidir
10.	M.I. Magur	Mehnat resurslari milliy iqtisodiyotda jismoniy va aqliy qobiliyati rivojlangan mamlakat aholisining bir qismidir
11.	Yu.M. Ostapenko	Mehnat resurslari – bu jismoniy jihatdan mehnat qilishga qodir va mehnat qilishga majburlasa bo‘ladigan aholi soni

Ko‘pgina mehnat munosabatlariga bag‘ishlangan qator iqtisodiy adabiyotlarda ishchi kuchini mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi va mehnat

<sup>10</sup> Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G‘ofurov Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta ta‘lim vazirligi. - T.:Iqtisod-moliya, 2010, -648 bet.

<sup>11</sup> Marx, Karl. “Capital: A Critique of Political Economy Volume One (1867).” Harmondsworth, Middlesses: Penguin Books Ltd, England, (1976); Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022, 145-bet; T.T.Jo‘rayev Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” 2018. 364-bet.;


Q.X. Abduraxmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot/ Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. T.:O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyot davlat korxonasi, T.:2019. -592 b.

salohiyati kabi iqtisodiy kategoriyalarga bog‘langan ta‘riflarini uchratish mumkin.

Bu ishchi kuchini miqdoriy tahlil qilish zaruriyatini tug‘diradi, lekin bizning fikrimizcha, ishchi kuchi kategoriyasini shaxsning mehnati bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil kategoriya sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini va boshqa kategoriyalardan birmuncha farqlanishini isbotlashga harakat qilamiz.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlardan kelib chiqib, shuni ta‘kidlash o‘rinliki: ishchi kuchi resurslari tovar va xizmatlar yaratishda ishlab chiqarish hamda takror ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish mumkin bo‘lgan aholining ma‘lum bir kontingenti bo‘lib hisoblanadi. Bunday aniqlikni kiritilishi bizning fikrimizcha ishchi kuchi resurslariga bo‘lgan yondashuvni ancha to‘liq tavsiflaydi va ishchi kuchi resurslarini ma‘lum bir vaqt oralig‘ida takror ishlab chiqarishdagi ishtirokini baholash imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish asosida kambag‘allikni qisqartirishga, xususan o‘zini o‘zi band qilish, kichik biznes va tarbirkorlikni, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilish lozimligini e‘tirof etadi.




**1-rasm. Mehnat bozorining tarkibiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘lanish jihatlari<sup>12</sup>**

Iqtisodiyotda xususiy sektor rolining kengayishi bilan aloqadorlikda ishga joylashtirishga ko‘maklashish bo‘yicha agentliklar, nodavlat ixtisoslashgan mehnat birjalari va xususiy vositachi firmalarning yaratilishi hamda faoliyatlari davomida maqsadga muvofiq ravishda mehnat bozori yagona axborot tizimidan foydalanish huquqi beriladi. Haqiqatdan ham, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmati organlari ma‘lumotlar bankining shakllanishida qo‘shma hamkorlik hududiy mehnat bozorida jarayonlar tezlashishining mutanosibligini ta‘minlaydi. Band bo‘lgan fuqarolarning mehnat faolligini samarali tashkil etishda vaqtincha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish jarayonlariga davlat-xususiy sheriklik shartlari

<sup>12</sup> Manbalarga tayanilgan va o‘rganilgan tadqiqotlarga asoslanib muallif tomonidan ishlab chiqildi.

asosida tadbirkorlik subyektlarini keng jalb etish, bunda ish izlovchilarni yotoqxon va transport bilan ta'minlash, tezkor buyurtmalar olish va boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish zarur.



**2-rasm. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida mehnat resurslarini vaqtincha ishlarni (kunlik mehnat) tashkil etish va muvofiqlashtirish<sup>13</sup>**

Shunday qilib, mehnat bozorida talab va taklifni tartibga solish bo'yicha hududiy axborot tizimlarini yaratilishi bozor aloqalarini shakllantirish, mehnat bozorida xo'jalik subyektlari transaksion xarajatlarini kamaytirish, tarmoqlar bo'yicha ishchi kuchi taqsimlanishini optimallashtirish maqsadida, ular o'rtasida intensiv aloqalarni qaror toptirish shart-sharoitlarini vujudga keltiradi. To'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi mehnat bozori samarali monitoringini ta'minlash uchun axborotlar uzatish jarayonini tezlashtiradi va hududiy ish bilan bandlik xizmati organlari uchun ish bilan bandlikka ko'maklashish dasturini ishlab chiqishda ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Demak, hududiy axborot tizimlarining yaratilishi mehnat bozorini tartibga solishda hududiy ish bilan bandlik siyosatini samaradorligini oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda ishchi kuchi resurslarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchi resurslari bandligiga qaratilgan davlat bandlik siyosati tahlili, ishchi kuchi resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bandligining joriy holati tahlili, respublikada ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir etuvchi omillar tahlil etilgan.

Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi asosida qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “aholi bandligini

<sup>13</sup> Manbalarga tayanilgan va o'rganilgan tadqiqotlarga asoslanib muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari", "aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai bilan ta'minlash, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish" hamda "ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish" zarurligi alohida asosiy vazifa sifatida belgilangan<sup>14</sup>. Mamlakatimizda aholi soni so'nggi yillarda, ya'ni 2023-yilda 2017-yilga nisbatan 4143,1 ming kishiga ortgan. Bu borada shaharlik aholi soni muntazam ko'payib borayotganini alohida aytib o'tish kerak. Masalan, 2017-yilda shahar aholisi 16533,0 ming kishini tashkil etgan bo'lsa 2023-yilga kelib esa 18771,1 ming kishini, jami aholi soniga nisbatan 51 foizli ulushga teng kelmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, shaharlik aholi soni 2017-yilda jami aholi soniga nisbatan 50,6 foizni tashkil etgan edi. Mehnat bozori egiluvchanligini ta'minlash hisobiga nostandart ish bilan bandlik turlari kengayib borayotganini bunga asosiy sabab sifatida keltirib o'tish mumkin.

Respublikamizda joriy yilda ish o'rniga ega bo'lgan ehtiyoj parametrlari mehnat bozorining amaldagi tamoyillarini o'rganish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif balansiga ta'sir etadigan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari tahlili asosida aniqlandi. Bunda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash natijasida bo'shab qoladigan xodimlar hisob-kitobiga alohida e'tibor qaratildi. Mehnat bozorida demografik omilning sezilarli va bevosita ta'siri saqlanib qoldi.

## 2-jadval

### O'zbekistonda mehnat resurslari, (ming kishi)<sup>15</sup>

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Mehnat resurslar soni	18666,3	18829,6	18949	19158,2	19334,9	19517,5	19724,9
Iqtisodiy faol aholi soni	14357,3	14641,7	14876,4	14797,4	14980,7	15038,9	15041,9
Ish bilan band aholi soni	13520,3	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	13706,2	14017,8
Ishsizlar soni	837	1368,6	1335,3	1561	1441,8	1332,7	1024,1

2-jadval ma'lumotlariga asoslanib, demografik tahlil natijalariga ko'ra, 2017-yil boshida mehnat resurslari soni 18666,3 ming kishini, shunday iqtisodiy faol qismi 14357,3 ming kishini va ularning o'sishi mos ravishda 2,2 foiz va 2,5 foizni tashkil etadi. Jadvaldan ko'rinib turganidek, 2017-2023-yillarda mehnat resurslari soni 18666,3 ming kishidan 19724,9 ming kishiga ko'paydi. Bu davrda iqtisodiy faol aholi soni 4,7 foizga ko'paydi va 2023-yilda mehnat resurslari tarkibidagi ulushi 76,9 foizdan 76,2 foizga tushgan. Ish bilan band bo'lgan aholi sonining ham ko'payishi kuzatildi, 2023-yilga kelib 14017,8 ming kishiga etdi. Shu bilan birga, 2023-yilda ishsizlar soni 1024,1 ming kishini tashkil etgan.

<sup>14</sup><https://lex.uz/docs/5841063> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

<sup>15</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.



Respublikamizda “Ish o‘rni tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash” Davlat dasturining prognoz parametrlari tarmoqlar bo‘yicha bandlik yo‘nalishlari va hududlar bo‘yicha ishga joylashishga bo‘lgan ehtiyoj, ayniqsa, ilk bor mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va ko‘p mehnat talab etadigan ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish natijasida bo‘shagan xodimlarni, shuningdek, sanoat, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini, xizmat ko‘rsatish sohasi, xususiy biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida ishchi kuchiga bo‘lgan talabdan kelib chiqib belgilanadi.

2010-2023-yillardagi O‘zbekistonda aholi iqtisodiy faollik darajasi o‘shish hajmi 2010-yilga nisbatan 2023-yilda o‘shish kuzatilgan bo‘lsada, unga mos ravishda ishsizlarning undagi ulushi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib bormoqda. 2010-yilda ishsizlik darajasi 5,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 6,8 foizga tushgan. Eng yuqori o‘shish esa 2020-yil bilan, ya’ni global pandemiya bilan bog‘langan holda 10,5 foizni tashkil etgan. Aholining iqtisodiy faollik darajasi esa 2010-yilda 70,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda esa bandlik 76,2 foizni qariyb mutloq ko‘rsatkichda 5,5 foizga o‘sgan. Bunday mos tendensiya 2017-yildan boshlab kuzatilgan.


### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida 2016-2023-yillarda YAIM va mehnat resurslari, (mlrd. so‘m/ ming kishi)<sup>16</sup>

Ko‘rsatkichlar	2016 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Yalpi ichki mahsulot hajmi	255 421,9	426 641,0	532 712,5	605 514,9	738 425,2	896 617,9	1066569
Mehnat resurslari	18 488,9	18 829,6	18 949,0	19 158,2	19 334,9	19 517,5	19 724,9

Mehnat bozoridagi konyunktura o‘zgarishi iqtisodiy o‘shishga yoki uni pasayishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun mehnat bozoridagi siyosatni ishlab chiqishda iqtisodiy o‘shish va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. 2016-2023-yillarda YAIM hajmining o‘shish tamoyiliga ega bo‘lgan, ya’ni 2016-yilda 255421,9 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib esa 1066569 mlrd. so‘mga o‘sgan. Bu yillar oralig‘ida mehnat resurslarining eng kam miqdori 18488,9 ming kishini (2016-yil), eng yuqori miqdori 19724,9 ming kishi (2023-yil), iqtisodiyotda band bo‘lganlar esa 2015-yilda 13058,3 mingni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda esa 14017,8 mingni tashkil etgan. O‘rtacha mehnat resurslarining soni 18764,3 ming kishi bo‘lgan. (3-jadval).

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari.



**3-rasm. Mehnatga layoqatli aholi va iqtisodiy faol bo'lmagan aholi qatlami uchun "barcha uchun ish" tavsifiga ko'ra, "Mening ishim" buyurtmalar birjasi onlayn maydoni tizimi<sup>17</sup>**

Mehnat resurslarining iqtisodiyotda band bo'lgan qismi 2023-yilda 15041,9 ming kishi (76,2 %)ni tashkil etgan. 1991-2023-yillar oralig'ida real YAIMning o'sish sur'ati o'rtacha 105,3 %ni tashkil etgan. YAIMning o'sish sur'ati 2011-yil

<sup>17</sup> Manbalarga tayanilgan va o'rganilgan tadqiqotlarga asoslanib muallif tomonidan ishlab chiqildi.

107,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda esa 106 foizga yetgan. Mehnat resurslarining o'sish sur'ati o'rtacha 100,9 foizni tashkil etgan.

2011-2023-yillarda mehnat resurslarining o'sish sur'ati 103,3 foizdan 100,9 foizga tushgan. 2015-2020-yillarda mos ravishda 99,4 foizdan 99,1 foizga tushgan. Bu jarayonga demografik yuklamaning davriy o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatgan, ya'ni aholining mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagilarning jami aholi sonidagi ulushining 7,6 foizdan 8,1 foizga oshgani, mehnatga layoqatli yoshdan kichik yoshdagilarning ulushi 43,2 foizdan 29,1 foizga kamaygani ta'sir ko'rsatgan<sup>18</sup>. Mehnatga layoqatli aholi va iqtisodiy faol bo'lmagan aholi qatlami uchun "barcha uchun ish" tavsifiga ko'ra, "Mening ishim" buyurtmalar birjasi onlayn maydoni ishga tushirilishi ishchi kuchi resurslarining ish bilan ta'minlanganlik darajani samarali tarzda ortishini inobatga olib, unda quyidagilar nazarda tutiladi:

ishsiz deb e'tirof etilganlar, asosan, ayollar, yoshlar, talabalar, nogironligi mavjud bo'lgan insonlar uchun ish faoliyati, masofadan turgan holda amalga oshiriladigan ishlar, xonadondan turib bajariladigan ishlar, kasanachilik ishlari, ish vaqtlari, talab qilinadigan kasbiy malaka darajasi, to'lanadigan ish haqi miqdori va boshqalarni aks ettirish;

#### 4-jadval

#### 2012-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi demografiyasidagi o'zgarishlar tendensiyasi<sup>19</sup>

Ko'rsatkichlar	2012 y.	2016 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Doimiy aholi soni, ming kishi	29993,5	32120,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	36799,8
Ayollar, ming kishi	14974,8	15999,5	16859,9	17180,5	17527,1	17896,3	18274,8
Erkaklar, ming kishi	15018,7	16121	17045,3	17378,4	17744,2	18128,6	18525,0
Doimiy aholi sonining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari, foizda	101,46	101,7	101,92	101,89	102,02	102,09	102,1
Ayollar soni o'tgan yilga nisbatan, foizda	101,41	101,6	101,8	101,8	101,9	102,0	102,0
Erkaklar soni o'tgan yilga nisbatan, foizda	101,5	101,7	101,9	101,9	102,0	102,1	102,1

<sup>18</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari.

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.


o'zini-o'zi bandligini ta'minlagan shaxslarning faoliyat turlari (xizmatlari, ishlari) hamda ularga talabi bor bo'lgan ish beruvchilar xo'jalik subyektlari to'g'risida axborotlarni olish;

o'zini-o'zi bandligini ta'minlagan shaxslarning faoliyat turlari (xizmatlari, ishlari)ni keng ommaga yetkazish yo'llarini amalga oshirish;

o'zini-o'zi bandligini ta'minlagan shaxslar va ularning xizmatiga talabi bor ish bilan ta'minlovchilar o'rtasida kunlik va uzoq davrli kelishuvlarni amalga oshirish.

Ma'lumki, ishchi kuchi taklifiga turli xil omillar ta'sir etadi. Shulardan biri bu mamlakatdagi demografik o'zgarishlar. O'zbekistondagi demografik o'zgarishlarning ayrim jihatlarini quyidagi jadval o'zida aks ettiradi.

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2012-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi demografiyasidagi o'zgarishlar tendensiyasi mamlakatimizda aholi soni o'sishi 2012- va 2023-yillar oralig'ida o'tgan yillarga nisbatan mutloq o'sish kuzatilgan, ya'ni mazkur ko'rsatkich 2012-yildan 2023-yilgacha bir maromda o'sishda davom etgan. Aholi sonida erkaklar biroz ustunlik qilayotgan bo'lishiga qaramasdan, ikkala jinsdagilarning o'sish darajasi deyarli bir xil natijani ko'rsatmoqda.



**4-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2010-2023-yillarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda) va aholining iqtisodiy faollik darajasini o'zgarish tendensiyalari, (ming kishi)<sup>20</sup>**

4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida 2010-2023-yillarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi salmog'i o'zgarish sur'atlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2010-yilda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 469,3 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib esa 4551,4 ming so'mni tashkil qilgan, 2023-yilda o'tgan 2022-yilga nisbatan 30,6

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari.

foizga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Aholining iqtisodiy faollik darajasi esa 2010-yilda 12286,6 ming kishidan 2023-yilda esa 15041,9 ming kishiga ko‘paygan.

Ayniqsa, ishchi kuchi resurslari faolligini oshirish ularga munosib turmush sharoitini yaratish va moddiy ta‘minotiga bog‘liq bo‘lgan, ular mehnati uchun to‘lanadigan ish haqi miqdorini zamonaviy bozor munosabatlariga muvofiq belgilash muhim sanaladi. Albatta bunda ishchi kuchi resurslarini iqtisodiy faollik darajasini oshirishda davlat tomonidan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning yangicha tamoyillarga asoslangan muhitini yaratishni taqozo etadi.

